

IKKI BUYUK SIYMO ADABIY MEROSINING
YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O‘RNI

*Umarjonova Kamola Uralovna
Raupova Sevara Abdurazoqovna
Jizzax viloyati Jizzax shaxar Ixtisoslashtirilgan
ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi
Tarbiyachi-pedagoglar*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil etiladi. Ulug‘ shoir va mutafakkirlarning asarlari yoshlarga vatanparvarlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, ilm-u ma’rifatga intilish kabi fazilatlarni singdirishda muhim manba ekanligi yoritiladi. Ayniqsa, ularning she’riyati va tarixiy asarlari yoshlarni milliy qadriyatlar va ma’naviy yuksalishga yo‘naltirishda katta o‘rin tutishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, adabiy meros, yosh avlod tarbiyasi, vatanparvarlik, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ma’naviy yuksalish.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z ijodi orqali o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk siymolardir. Ularning asarlari nafaqat badiiy yuksaklik, balki yosh avlod tarbiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda yoshlarni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va insoniy fazilatlarga yo‘naltirishda bu mutafakkirlarning asarlaridan samarali foydalanish lozim.

Mana oradan besh asrdan ortiq vaqt o‘tibdiki ulug‘ mutafakkir bobolarimiz, so‘z mulkining sultonı Alisher Navoiy hamda shoir Zahiriddin Muhammad Boburning boy ma’naviy merosi butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat va mehr-muruvvat nurini taratib kelmoqda.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o‘gli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotda tug‘ildi. Zamondoshlari uning haqida ko‘pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. Nizomiddin-din-dyonat nizomi degani bo‘lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ amir demakdir. Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo‘lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan ekan.

Buyuk shoir o‘z asarlarida bu qutlug‘ dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi.

Bundan tashqari, Alisher Navoiyni tasavvufiy, iqtisod va tarixga oid asarlari ham mavjud.

„Vaqfiya“ asarida vaqf yerkari, mulklari, ularning miqdori, ulardan foydalanish, vaqf mulki va mablag‘i evaziga quriladigan bino va inshootlar, bu yo‘nalishda madrasa va xonaqohlarda o‘rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritdi. Tarix va iqtisodiy yo‘nalishdagi asarlari N.Veselovskiy, Yakubovskiy, Ya.G‘ulomov, V.Zohidov, B.Ahmedov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma’naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o‘rin oldi.¹

Bobur (taxallusi) to‘liq ismi - Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo. U 1483-yil-1530-yil o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo‘lgan. Bobur o‘z davrining buyuk shaxslaridan biri edi. Uning she’rlari, ruboiylari o‘z vaqtida va hozir ham sevib o‘qilmoqda.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzusi ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviyalarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husn-u latofati, sharqona odob-u axloqi, noz-u karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

Boburning o‘z she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo „Boburnoma“ning 1518-1519-yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan.

Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan.

Misol uchun, 1521-yil Hindistonga yurishlar paytida Bobur 1521-yilda nashr etilgan „Mubayyin“ asarini yaratdi. Islom fiqhi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan masnaviy uslubida yozilgan.

„Mubayyin“da namoz, zakot va hajga oid shariat mezonlari ham bayon etilgan. Bobur shu yillarda Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri, aruz vazni, nazariyasi va amaliyoti haqida o‘z ilmiy risolasini yakunlaydi.

Boburning yuqoridaq asarlaridan tashqari „Xatti Boburiy“ ham, musiqa san’ati va harb ijodiga maxsus bag‘ishlangan risolalar turkumi ham bo‘lgan, ammo keyingi

¹ Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.

ikki asarning matni hali topilmagan. „Xatti Boburiy”da muallif arab alifbosini tahrir qilib, yozuvni soddalashtirish va yengillashtirish maqsadida turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.

Alisher Navoiy va Boburning asarlarida vatanparvarlik asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Navoiy „Xamsa” dostoni va g‘azallarida xalqparvarlik, adolatparvarlik va milliy g‘urur g‘oyalarini ilgari surgan. Bobur esa „Boburnoma” asarida o‘z yurti, tabiatи va madaniyatiga bo‘lgan cheksiz muhabbatini aks ettirgan. Yoshlar ushbu asarlar orqali o‘z yurtining tarixini, buyuk ajdodlarining jasoratini anglab yetadi.

Navoiy va Bobur asarlarida axloqiy yetuklik, adolat, halollik, saxovat kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi. Masalan, Navoiy o‘z she’riyatida insonni komillikka yetaklaydigan sabr-toqat, donolik va ilmning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bobur esa o‘z hayoti misolida insonning qat’iyati va shijoati orqali qanday muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini ifodalaydi. Bu yoshlarni intizomli va maqsadga intiluvchan bo‘lishga undaydi.

Navoiy butun umr ilm-ma’rifatni ulug‘lagan va yoshlarni bilimga undagan. Uning „Mahbub ul-qulub” va „Hayrat ul-abror” asarlari axloqiy-ma’rifiy pand-nasihatlar bilan boyitilgan. Bobur ham ilm-fan, san’at va adabiyotga katta e’tibor bergen va bu borada yoshlarga namuna bo‘la oladigan shaxsdir.

Xulosa qilib aytkanda, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Ularning asarlari yoshlarni Vatanga sadoqat, ilmu ma’rifatga intilish, halollik va adolat kabi fazilatlar asosida kamol topishga undaydi. Shu bois, bu bebaho merosni chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish yosh avlod tarbiyasining muhim jihatlaridan biri bo‘lishi lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.
3. Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Saidov U. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. A.Abdug‘afurov. Buyuk beshlik sirlari. — T.: 1993.